

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR IJODIY FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Sadatov Chori Xolmurodovich

TerDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasini mudiri, dotsent,

O'zbekiston, Termiz shahri

e-mail: sadatov@terdupi.uz

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada san'at, usul, texnologiya, tasviriy san'at darslarida o'quvchilar ijodiy faolligini takomillashtirish usullari, texnologiyalari, interfaol usullar, o'quvchilarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishi, bugungi kunning yoshlari qanday usul va texnologiyalarga ega bo'lishi kerakligi yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** San'at, usul, texnologiya, pedagogik texnologiya, interfaol usullar, noan'anaviy, kompozitsiya.*

Insonlarni ilhomlantirib, ish qilishiga undaydigan narsa san'at turlari hisoblanadi. San'at olamiga kiradigan inson juda ham mard va san'atni sevuvchi bo'lishi ham kerak. Yer yuzidagi har bir kishi san'at atamasini yaxshi biladi va hozirgi kunda kundalik hayotimizda ham faol ishlatib kelamiz. Ammo barchani ham san'atning aslida nima ekanligi unchalik qiziqitirmaydi. San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri- tasviriy san'atdir. Birinchi rasm asarlari qadimgi davrlarga tegishli bo'lgan, ular qadimgi odamlar g'orlarining devorlarida topilgan va juda ham qadimiy hisoblangan. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'atdir. Umuman yuqorida aytib o'tilganidek, san'at olami keng qamrovli hisoblanib, hozirgi kunga kelib, zamonaviy o'qituvchi yoshlarni bilim, malaka va ko'nikmalarini asosan dars davomida shakllantirib amalga oshirishimiz lozim. Agar har bir o'qituvchi rasm chizishni bilganda edi, ular dars berishda yuksak samaralarga erishardi, dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish ham o'quvchi uchun juda oson va yengil bo'lardi, hatto o'zlashtirishi past o'quvchini bo'lishi ancha qiyin bo'lardi. Shularga ko'ra bugungi maktab o'quvchilariga badiiy bilim va malaka berishga katta e'tibor berilmoqda. Tasviriy san'at darslarida asosan san'atni va borliqni estetik idrok qilish yo'llarini o'zlashtiradi. Bu fan orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, estetik hissiyotlari hamda asosiy ijodiy tafakkuri rivojlanib boradi. Dars jarayonida yangicha zamonaviy interfaol usullar va texnologiyalardan foydalangan holda ularning faolligini oshirish lozim. Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riklar, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usulidir. Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli usullardan foydalaniladi. Bu usullarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operastiyalarining yoki yo'llarining yig'indisi deyish mumkin. Biror ishni bajarish usulini egallagan inson shu ishni boshqalarga nisbatan tez va juda oson bajara oladi. Usulni ya'ni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt sarflaydi. Texnologiya ("hunarmandchilik ilmi", dan yunoncha techne, "san'at, mahorat, qo'l ayyorligi") yig'indisi texnikasi, ko'nikmalar, usullar tizimidir. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Evropada ta'limning isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi va B.Blui, J. Koroll, P.YA.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I. Zankov texnologiyalari mashhurdir. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, YU.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

«Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. Shepel). Pedagogik texnologiya – tinglovchi va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir.

Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir. Dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol usullarini tanlashda avvalambor fanning xususiyatini hisobga olish kerak. Tasviriy san'at darslarini samarali va qiziqarli olib borish uchun o'qituvchi avvalambor kreativ bo'lishi, interfaol usullar va texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanib bilishi kerak. Pedagogik texnologiyani yaratish tamoyillarining birinchisi muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olishi; ikkinchisi; umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olishi shart. Dars davomidagi oddiy qoida shuki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida o'quvchilarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim. Har qanday

holatda ham nazariy dars jarayonida, masalan faqat ma'ruza o'qiladigan vaqt 20 daqiqadan oshmasligi kerak.

Chunki, o'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 30 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi. Masalan, "Rangtasvir san'atin" mavzusini tushuntirishda o'qituvchi nafaqat o'zbek, balki chet ellik rassomlarning ijodiy ishlaridan, hamda o'qituvchi o'zining kompozitsiya (lot.compositio-tuzilish, ijod qilish,g'oya) ishlaridan ham namuna sifatida ko'rsatishi, bu o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini asosan dars davomida shakllantirib, hamda ularni yaxshiroq taassurotga ega bo'lishlari va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi. (1-rasm)



1-rasm.

Tasviriy san'atda o'quvchilarga nafaqat nazariy jihatidan balki, amaliy jihatidan ko'roq tabiat qo'ynida o'tkazishlari, muzeylarga sayohat uyushtirib turish va albatta ko'proq rasm chizib, yangicha kompozitsiya yaratish bu o'quvchilarga katta ijodiy imkoniyat va iloji boricha har bir yangi mavzuni, ko'rgazmali qurollar, yangi mavzuni hayotiy misollar orqali tushuntishi ham, bu past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning yaxshiroq tushunish imkoniyati va fanga nisbatan qiziqishini yana ko'proq oshiradi.

Fransuz faylasufi Didro, bundan qariyb 300 yillar avvaldanoq, - «Qaysi bir mamlakatda ish kabi bilsalar edi, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi» degan edi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi o'quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayner, muhandis, shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki boshqa biron bir sohani yaratuvchisi bo'ladilar. Ularni har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo'ladi. Har qanday oddiy, asbob-texnika vositalarini ishlatish va ularni sozlash uchun ham grafik bilim va malakalar kerak bo'ladi. Shu boisdan har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlarini bilishi maqsadga muvofiqdir. Hayotda inson uchun muvaffaqiyatning asosiy sirlaridan biri, qulay vaziyat kelganda undan foydalanmoqlikka tayyor turishdir. Shunday ekan har doim o'qituvchi o'quvchining qiziqishi, qobiliyatini hisobga olib,

darslarda didaktik, noan'anaviy, yangi usul va g'oyaga asoslangan holda, ularning ijodiy faolligini oshira bilishi va mustaqil kasbga yo'llay bilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdirasilov S. "Tasviriy san'at va o'qitish metodikasi" Toshkent - "Fan va texnologiya" - 2012
2. S.F. Abdirasilov, Boymetov B., Tolipov N. "Tasviriy san'at"-T. "Cho'lpon" nashriyoti 2012
3. Abdullayev N.U. "San'at tarixi" 1-tom. Toshkent. O'qituvchi, 1986 yil.
4. Sadatov C. The importance of virtual museums in the formation of students' educational competencies on fine literacy //Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19). – 2020. – T. 1. – №. 04. – C. 201-203.
5. Sadatov C. K., Normatova G. Some species eksperimentno-experimental work that makes a teacher //European Conference on Education and Applied Psychology. – 2014. – C. 174-176.
6. Bahodirovna M. Z., Xolmurodovich S. C. Methodical Interpretations on the Organization of Independent Educational Classes in the Subject of Painting //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2020. – T. 2. – №. 11. – C. 24-27.
7. Xolmurodovich S. C. FUNDAMENTALS OF PENCIL AND ITS GOALS //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 6-7.
8. Xolmurodovich S. C. THE SPIRITUAL IMPACT OF FINE ARTS ON PERSONAL DEVELOPMENT AND ITS PLACE AND SIGNIFICANCE TODAY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 10.
9. Xolmurodovich S. C. et al. O'QUVCHILARNING CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLGYALARNING O'RNI VA AMALIY AHAMIYATI //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 189-192.
10. Xolmurodovich S. C., Xolbozorovich Q. J. THEORETICAL FUNDAMENTALS OF STUDY PEN AND GENERAL PRINCIPLES OF DRAWING //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 10. – C. 709-716.
11. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образование. – 2022. – T. 1. – №. 1.

12. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – C. 3-3.

13. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. Xalq amaliy san'atining chizmachilik fani bilan bog'liqligi //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 138-142.

14. Toshpulatov F. U., Norkochkarov R. E. O., Mahmudova H. N. Q. THE RELATIONSHIP OF FOLK APPLIED ARTS WITH THE SCIENCE OF DRAWING //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2.

15. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.

16. Tashimov N. E., Toshpulatov F. U. Activating Students in Building Intersection Line by Quadratic Transformations Method //www. auris-verlag. de.– 2018. – 2018.

17. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.

18. Toshpulatov F. U., Murodaliyevna T. F. DEVELOPMENT OF THE SKILLS OF STUDENTS TO AVOID TYPICAL ERRORS WHEN PERFORMING CUTTING AND CUTTING //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 5. – C. 70-74.

19. Urolovich T. F. et al. TASVIRIY SAN AT DARSLARIDA TASVIRNI TO G RI CHIZISHDA PERSPEKTIV POZITSION VA METRIK MASALALARDAN AMALDA TO GRI FOYDALANISH //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects. – 2022. – C. 41-44.

20. Toshpulatov F. U. GEOMETRICAL ANALYSIS OF THE ELEMENTS OF ANCIENT GREEK AND PLANT-LIKE (ISLAMIC) MOTIFS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 8. – C. 461-468.

21. Urolovich T. F. CHIZMACHILIK DARSLARIDA AMALIY SAN'AT ELEMENTLARIDAN FOYDALANIB TARKIBIDA TUTASHMA ELEMENTLAR QATNASHGAN NAQSH NAMUNALARINI CHIZISH //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 158-162.